



XX-XXI ASRDA YOZILGAN QUR'ONI KARIMNING TAFSIRLARI VA MUFASSIRLAR HAYOTI

Sheraliyev Jo'rabebek O'lmasvoy o'g'li

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 543 39 33

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada Qur'oni kirimning tafsiri va uning tarjimasi tog'risida gap boradi. Shu bilan birganikda, yurtimizda yashab o'tgan va hozirgi kunda ham faoliyat yuritayotgan mufassirlarlar, ularning hayoti va qoldirgan asarlari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'z: Tafsir, tarjima, Qur'on, sura, mutolaa, ilm, nabiyl, rosul, ma'nolarning bayoni. turkiy til, ko'kaldosh.

O'zbek xalqining ilmga bo'lgan ishtiyoqi, xususan, Qur'oni Karim tafsiri va tarjimalariga bo'lgan qiziqishi natijasida bugungi kungacha ko'plab tarjima va zamonaviy tafsirlar yaratildi.

Eski o'zbek adabiy tilida Sayyid Mahdum ibn Sayyid Nazr Taroziy Madaniy Oltinxonto'ra, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Dr Usmonxon Alimov tomonidan amalga oshirilgan tarjima va tafsirlar xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lgan va har bir xonodon to'ridan joy olgan. Shundan kelib chiqib, zamonaviy tarjima va tafsirlarni o'rganish, tadqiq qilish ahamiyatlidir.

Tafsir Qur'oni Karimni bevosita o'rganadigan ilm bo'lgani bois unga islam olimlari alohida e'tibor qaratganlar va qadrini yuqori sanaganlar. Tafsir borasida asrlar osha juda ko'plab tadqiqotlar va adabiyotlar yaratildi, dinni o'rganmoqchi bo'lgan har qanday izlanuvchi unga ahamiyat qaratgan. Natijada oyatlarni sharhlashda turli yondashuv va qarashlardan iborat kitoblar yaratildi. Masalan, islam olamida mashhur bo'lgan Imom Tabariy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Lays Samarqandiy, Ibn Atiya Andalusiy, Ibn Kasir, Abul Barakot Nasafiy kabi bir qator olimlar Qur'onga to'liq tafsir kitoblari yozgan bo'lsalar, Dehlaviy, Xoliq Abdurahmon Akk. Siddiq Hasanxon singari tadqiqotchilar tafsir ilmi asoslari va usullari haqida asarlar yaratganlar. Shuningdek, G'arb olimlaridan K.Brokkelman, F.Myuller, Ch.Ryo, Ch.A.Stori yoki A.T.Tagirjanov, F.I.Abdullayeva va boshqa olimlar o'z asarlarida Qur'onga doir tadqiqotlarga alohida to'xtalib o'tganlar. [1:56]



O‘zbek xalqining ilmgan bo‘lgan ishtiyoqi, xususan, Qur’oni Karim tafsiri va tarjimalariga bo‘lgan qiziqishi natijasida bugungi kungacha ko‘plab tarjima va zamonaviy tafsirlar yaratildi.

Eski o‘zbek adabiy tilida Sayyid Mahdum ibn Sayyid Nazr Taroziy Madaniy Oltinxonto‘ra, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Dr Usmonxon Alimov tomonidan amalga oshirilgan tarjima va tafsirlar xalqimiz e’tirofiga sazovor bo‘lgan va har bir xonodon to‘ridan joy olgan. Shundan kelib chiqib, zamonaviy tarjima va tafsirlarni o‘rganish, tadqiq qilish ahamiyatlidir.

Zamonaviy tarjima va tafsirlarni o‘rganishda Shayx Abdulaziz Mansurning “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri” va Shayx Dr. Usmonxon Temurxon o‘g‘li Samarqandiyning “Tafsiri Irfon” asarlaridan foydalanildi. Bundan tashqari Sayyid Mahdum Oltinxonto‘raning “Qur’oni Karimning chig‘atoy tilidagi ma’nolar tarjimasi”, Muhammadjon Mulla Rustam o‘g‘lining (Domla Hindistoniy) “Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur’on”, Shayx Alouddin Mansurning “Qur’oni Aziyim muxtasar tafsiri”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” tarjima va tafsirlari o‘rganildi.

XX- XXI asrda yozilgan zamonaviy Qur’oni Karim tafsirlari va tarjimalariga to‘xtalishdan oldin, albatta, ularni ta’lif etgan mufassirlar bilan tadrijiy ravishda qisqacha tanishib o‘tish darkordir. Ulardan dastabkisi Qadimgi Turkiston o‘lkasidan yetishib chiqqan, milodiy XX asrning mashhur ulamolaridan bo‘lmish sayyid Mahmud ibn sayyid Nazir Taroziy Turkistoniy hazratlari 1895-yili Janubiy Qozog‘istonning O‘zbekistonga tutash Taroz (hozirgi Jambul) shahrida tug‘ilganlar.

O‘zbek xalqi orasida Oltinxonto‘ra nomi bilan mashhur bo‘lgan bu zotning otalari sayyid Nazir ham murattab qori, ham hadis ilmining bilimdoni bo‘lgan. Qatag‘on yillarida hibsga olinib, bedarak ketgan. Sayyid Mahmud Taroziy yoshliklaridan noyob iste’dod va o‘tkir qobiliyatga ega bo‘lganlar. Hofiz Bedil va Sa’diy Sheraziy asarlaridan ko‘p narsalarni yod olganlar. Shuningdek, Qur’on qiroatiga ham mohir bo‘lganlar.

U kishi dastlabki ilmni otalaridan olganlar. So‘ng Shayx Nosirxonto‘ra Kosoniydan va boshqa o‘z davrining yetuk ulamolaridan ta’lim olganlar. Shuningdek, Toshkentdag‘i Ko‘kaldosh madrasasida, keyinchalik Buxoro madrasalarida tahsil ko‘rganlar. U kishi Qur’on, hadis, aqida, siyrat va boshqa shar’iy ilmlarni o‘rganish bilan bir qatorda, arabiyl, turkiy va forsiy tillarni ham puxta egallaganlar.

Sayyid Mahmud hazratlari Tarozda maktabdorlik, so‘ng madrasada mudarrislik qilganlar. Olim sifatida shuhrat topib, nomlari atrofdagi Turkiston, Chimkent, Sayram tomonlarda ham mashhur bo‘lgan. Shuhratlari butun Turkiston o‘lkasiga yoyila boshlagan sayyid Mahmud Taroziy Farg‘ona vodiyining Qo‘qon va Namangan

shaharlaridagi ahli ilmlar bilan aloqada bo‘lganlar, hatto namanganlik ahli ilmlardan birining qiziga uylanganlar.

Sho‘ro hukumati dindorlarni ta’qib va tazyiq ostiga olganda, ko‘plab ulamolar qatori u kishi ham 1930-yili o‘z vatanlaridan chiqib ketishga majbur bo‘ladilar. Dastlab, Afg‘onistonning o‘tib, Qobulda istiqomat qiladilar. U yerdan muborak haj safariga borib, keyin Hindistonga o‘tib ketadilar va Bombayning musulmonlar yashaydigan mahallasida muqim turib qoladilar. U kishi shahardagi mahalliy masjidlardan biriga imom-xatib etib tayinlanadilar. Shu tarzda Bombayda o‘n yil yashaydilar. Keyin Hindistondagi siyosiy notinchliklar tufayli Arabistonga borib o‘rnashadilar.

Sayyid Mahmud Taroziyning 40 yildan ortiq davom etgan so‘nggi ilmiy-islomiy va adabiy-ma’rifiy faoliyatları muqaddas shaharlar – Makkai Mukarrama va Madinai Munavvarada kechadi.

Dastlab, Makkada xususiy maktab ochib, vatandoshlarimizning farzandlari va mahalliy aholining bolalariga dars bera boshlaydilar. Keyinchalik u kishining keng qamrovli olim ekanliklari Arabistonda ham ma’lum bo‘lib, hukumat tomonidan Harami sharifda dars berishga taklif qilinadilar. U kishining olimlik iste’dodi, arab tilini chuqur bilishlari, notiqliklari haqidagi xabar Saudiya Arabistoni podshohigacha yetib boradi. Olimlik faoliyatlarini e’tiborga olib, u kishini Harami sharifga mudarrislikka tayinlaydi. Shunday qilib, u kishi bir necha yil mana shu martabali lavozimda xizmat qiladilar.

Sayyid Mahmud Taroziy hazratlari vatandoshlarimizning e’tirof qilishlaricha, turkistonlik muhojirlarning ham muftiyi, ham haqiqiy ma’naviy suyanchig‘i edilar. Hamyurtlarining musofir yurtda biron hayotiy muammosi bo‘lsa, u kishi podshoh yoki shahar amiri qabuligacha bemalol kirib, arz va iltimos qila oladigan darajada obro‘qozongan edilar.

Ul kishining ulkan ilmiy va adabiy meroslari ziyo ahliga yaxshi tanish. Bular:

- Qur’oni karim ma’nolarining Turkiston tiliga izohli tarjimasi;
- “Nurul basar” nomli ushbu siyrat kitobi;
- Imam Navaviyning “Riyozus-solihin” kitobining izohli tarjimasi;
- Imomi A’zamning “Al-fiqhul akbar” kitobining izohli tarjimasi;
- Abu Iso Termiziyning “Shamoili Muhammadiya” asarining izohli tarjimasi va boshqalar. [2]

Keyingi mufassir bu o‘z davrining olim kishilaridan bo‘lmish Qur’oni Karimga tafsir yozgan Domla Hindistoniy bo‘ladilar. Asli ismi Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li bo‘lgan. Bu alloma 1892-yilda Qo‘qon muzofotiga qarashli Hoja Muhammad Valiy qabristoniga yaqin Chorbog‘ qishlog‘ida tug‘ilgan. Muhammadjon o‘n to‘rt yoshida hofizi Qur’on bo‘lib yetishgan. Dastlab Qo‘qon va Buxoro madrasalarida, keyinchalik Afg‘onistonning Balx va Mozori Sharif shaharlarida saboq olgan. So‘ngra

ulug‘ ustozlarining tavsiyalariga binoan Hindistonga safar qiladi va Ajmir shahridagi “Usmoniya” madrasasida yana sakkiz yil ilm o‘rganadi. Uning Hindistoniy taxallusini olishi shundan boshlangan.

Urushdan keyingi yillarda diniy e’tiqod masalasida biroz yumshoq siyosat boshlangandek bo‘ldi. O‘sha paytlar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi Toshkentda joylashgan bo‘lib, butun mintaqada diniy ishlar shu yerdan boshqarilardi. Muhammadjon domla idoraning muftiyisi Eshon Boboxonovga ish so‘rab murojaat qiladi. U kishi domlaning ilmu odobini obdon sinovdan o‘tkazgach, ish yuritish uchun Tojikistonga yuborishini aytadilar. Muhammadjon domla ikkilanmay rozi bo‘ladi. Domla Tojikistonga borgach, yashashga uy-joyi bo‘lmaganidan Mavlono Ya’qub Charxiy qabristonidagi masjidda yashay boshladilar.

Muhammadjon domla Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar bo‘limida tarjimon bo‘lib ishlay boshladi. Domla ana shu bo‘limda ikki yil arab tilidagi kitoblarni fors va o‘zbek tillariga o‘girish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Xususan, shu yillarda u Zamaxshariyning “Navobig‘ul kalim” hamda “Maqomoti Zamaxshariy” asarlarini arab tilidan fors tiliga, Imom Barzanjiyning “Mavludun nabiy” asarini o‘zbek tiliga, Imom Busiriyning “Qasidai Burda” asarini fors tiliga, arab shoiri Farazdaqning Imom Zaynul Obidunga bag‘ishlangan qasidasini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Biroq tinimsiz ta’qib va tazyiqlar, mehnat lagerlaridagi og‘ir hayot, mash‘um urush balolari asta-sekin o‘z asoratlarini namoyon eta boshlagan edi. Domlaning ko‘zları xiralashib qoldi. Shifokorlar u kishiga mutassil kitob bilan shug‘ullanish zararli deb tashxis qo‘ydilar. Shundan so‘ng domla endilikda to‘plagan ilmini boshqalarga berish mavridi kelganini anglab, bir qancha kitoblar tasnif etishga muvaffaq bo‘ldi. Jumladan, domla Qur’oni karimning ma’naviy tarjimasi — “Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur’on” kitobini tasnif etdi. Bu muborak kitob O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi ilmiy xodimi, zahmatkash olim Sayfiddin Rafiddinov tomonidan 2006-yilda nashrga tayyorlanib, “Movarounnahr” nashriyotida chop etildi. Bobomiz Imom Buxoriyning “Al-jomi’ as- sahih” hadislar to‘plamini, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya”, Imom A’zamning “Fiqhul akbar”, Abdurahmon Jomiyning “Sharhi Mullo”, Muhammad Fazlul- imom Xayriobiyning “Mirqotul-mantiq” asarlarini sharh qildilar. “Usuli Shoshiy”, “Nurul anvor” va “Muxtasari maoniy” kabi asarlarni o‘zbek va fors tillariga tarjima qildi. Ayniqsa, domlaning Abdulqodir Bedil g‘azallari sharhi tahsinga sazovor bo‘ldi. Bundan tashqari, Muhammadjon domlaning ilmiy ma’ruzalari yuzlab magnit tasmalariga shogirdlari tomonidan yozib olindi. Bu ma’ruza va suhabatlar, tafsir, hadis, fiqh, islom tarixi, tasavvuf, adabiyot va odob-axloq haqidadir. [3]

Keyingi mufassir Shayx Alouddin Mansur bo‘lib, u 1952-yilda Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh viloyatining Qorasuv shahrida tug‘ilgan. Zamonasining atoqli

olimlaridan tahlil olib, ilmini kamolga yetkazdi. Olim Qur'oni Karim ma'nolarining o'zbekcha izohli tarjimasini tayyorladi hamda uning tarjimasi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi o'tkazgan tanlovda eng yaxshi deb topildi. Kitob 1991-1993-yillarda, avval "Sharq yulduz" jurnalida, keyin "G'afur G'ulom" va "Cho'lpon" nashriyotlarida bir million nusxada bosildi. Tarjimaning so'zma-so'z emas, ma'nosni bilan o'girilgani xalqimiz va kitobxonlar uchun ahamiyatli edi. Shundan keyin u 2000-yilda Qorasuv shahrida "Qur'oni Karimni o'rganish ilmiy markazi" tashkil etib, Qur'oni Karim ma'nolarining rus (Alisher Ahmad bilan hamkorlikda) va qirg'iz tillariga tarjima qildi. So'nggi yillarda u Qur'oni Karimning imkonи boricha kengroq tafsirini tayyorlash ustida ish olib bordi. Qirg'izistonda shayxning ko'p jildli "Qur'oni azim tafsiri" chop etilgan. Shayxning "Imom A'zam buyuk imomimiz" nomli asari O'zbekistonda chop etilgan. Shayx Alouddin Mansur harzatlari juda tirishqoq, ilmga chanqoq va el uchun, millat uchun astoydil xizmat qilganlar. Shayx Alouddin Mansur Hazratlarini tafsirlari adabiy tilning o'ziga rom etuvchi o'ta mayin uslub bilan yozilganligi, insonni o'ziga rom etadi vas bu jihat bilan boshqa tafsirlardan ajralib turadi. Tafsir, asosan, faqat xoslar uchun emas, balki so'zlari yengilligi jihatidan om xalq ham o'qib qiyinchiliklarsiz tushunishiga imkon yaratadi. Shayx Alouddin Mansur hazratlarini mutolaaga, kitoblarga mehrlari baland edi. Badiy adabiyot, ayniqsa, Abdulla Qodiriy asarlarini katta ishtiyoq bilan o'qir edilar. "O'tkan kunlar" ramanini har yangi nashr bilan tanishib, qayta-qayta mutolaa qilar edilar. Umrlarining so'nggi vaqtida ham, 38 harorat bilan bo'lsa-da, qo'lida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari, har mutolaadan keyin, yana bir Abdulla Qodiriy bormikan, degan savol bilan qolar ekanlar. "O'tkan kunlar"ni mutolaa qilib o'n besh kundan so'ng vafot etganlar. Olimning sevgan adibi ham, o'qigan so'nggi asarlari ham "O'tkan kunlar" bo'lgan. [4]

Keyingi mufassir bu o'z davrining olim kishilaridan bo'lmish Qur'oni Karimga tafsir yozgan Shayx Abdulaziz Mansur hazratlaridir. Ularning hayotlari va ilmiy ishlari bo'yicha qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, ular maktabni tamomlagandan so'ng Oltiariq tumani va Marg'ilon shahridagi turli idoralarda ishlagan.

1975—1979 yillari Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida tahlil oldi.

1979—1980 yillarda "Sovet Sharqi musulmonlari" jurnalni tahririyatida mas'ul kotib bo'ldi.

1980—1981-yillari Sudan islom universitetida tahlilni davom ettirdi.

1982—1989 — O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi Fatvo bo'limi mudiri.

1989—1993 — Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim.

1993—1994 — "Movarounnahr" nashriyoti mudiri.



1994—1997 – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bo‘lim boshlig‘i.

1997—2000 – O‘zbekiston Respublikasi prezidentining millatlalaro munosabatlar va diniy masalalar bo‘yicha davlat maslahatchisi.

2000—2006 – Toshkent islam universitetining ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha prorektori.

2006-yildan buyon O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi (muftiy)ning o‘rnbosari (muovini)dir.

2018-Toshkent shahrining bosh imom xatibi va Minor masjidining imomi bo‘lgan.

Shayx Abdulaziz Mansur amalga oshirgan “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri” 2002-yilda nashr qilindi. Mamlakatimizda bebaho diniy-ma'rifiy merosimizni o‘rganish va undan xalqimizni bahramand qilishdek xayrli ishlarga katta e’tibor berilmoqda. Qur’oni karim m’nolari o‘zbek tiliga tarjima va taafsir qilish an’anasining davom etayotgani so‘zimiz dalilidir.

Yurtimiz ulamolaridan Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan ushbu tarjima va tafsir o‘ziga xos xususiyatlari bilan kitobxonlarga ma’naviy va ma'rifiy boylik baxsh etadi degan umiddamiz.

Mazkur kitobning endilikda QR-kodli varianti ham chop etildi. Kodni telefonga kiritish orqali Qur’on tilovatini va Afzal Rafiqov o‘qigan ma’nolar tarjimasining audio shaklini tinglashingiz mumkin. [5]

Keyingi mufassir bu Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bo‘ladilar. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1952-yil 15-aprelda O‘zbekistonda diniy olim oilasida tug‘ilgan. Otasi ustoz Muhammad Yusuf o‘g‘liga boshlang‘ich diniy ta’lim bergen, mакtabda muvaffaqiyat qozonishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergen, kitobxonlikka mehr uyg‘otgan.

Shayx Muhammad Sodiq o‘rtta maktabni tamomlagach, 1970-yilda Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil oladi va uni eksternet bo‘yicha muvaffaqiyatli tamomlaydi. 1973-yilda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutiga o‘qishga kirdi. 1975-yilda institutni tamomlab, “Sovet Sharq musulmonlari” jurnalida ishlagan. 1976-yilda Tripolidagi Da’wa Islamia universitetiga o‘qishga kirdi va uni 1980-yilda imtiyozli diplom bilan tugatdi. Vataniga qaytib, O‘rtta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining tashqi aloqalar bo‘limida ishlagan, Imom Buxoriy nomidagi Oliy islam institutida dars bergen. Bu davrda Shayx Muhammad Sodiq institut uchun yangi o‘quv dasturini ishlab chiqdi, yangi islomiy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydi, talabalarni zarur o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlashni tashkil qildi. 1986-yilda institut rektori bo‘ldi.

1989-yil 6-fevralda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf — O‘rtta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi rahbari, O‘zbekiston mustaqillikka erishish



arafasida esa shayx SSSR Oliy Kengashiga deputat etib saylandi va mustaqil O‘zbekistonning birinchi muftiyisi bo‘ldi.

Mustaqillik bilan xalqqa diniy erkinlik berildi, muftiy Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf O‘zbekistondagi eng mashhur shaxsga aylandi. Xuddi shu yili u SSSR xalq deputati etib saylandi.

1997-yilda Shayx Muhammad Sodiq Saudiya Arabistonidagi xalqaro islom tashkiloti Rabita al-Alam al-Islomiy (Islom olami uyushmasi) musulmon mamlakatlari va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari uchun mas’ul etib tayinlandi. U ushbu tashkilot boshqaruv kengashining doimiy a’zosi edi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf O‘zbekistondagi vataniga qaytib, ko‘plab diniy asarlar yozishga kirishdi. Musulmonlarning ilmiy va diniy madaniyatini yuksaltirishga bag‘ishlangan respublika bo‘ylab o‘tkazilgan ko‘plab tadbir va yig‘ilishlarda qatnashgan, Qur’oni Karimning o‘zbek tiliga semantik tarjimasini amalga oshirgan, islom ilmlariga oid yuzdan ortiq kitob va tarjimalarini nashr ettingan

Shayx Muhammad Sodiq kitoblari orasida: Tafsiri hilol (Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri, 6 jildda), Hadis va hayot (Hadis va hayoti, islom tarixi va barcha tafsilotlari haqida tizimli ravishda bat afsil so‘z yurituvchi kitoblar turkumi, barcha payg‘ambarlar tarixi.., 40 jild atrofida), Ruhiy tarbiya (Ma’naviyat tarbiyasi, 3 jild), Kifoya (Islom huquqi) 3 jildli kitoblar) va boshqa ko‘plab islomga oid kitoblar, bukletlar, audio va video materiallar hamda Imom al-Buxoriyning mashhur kitoblarining o‘zbek tiliga tarjimalari bor. Hazratning Qur’oni Karimga qilgan tafsirlari, boshqa kitoblardan ajralib turadigan jihat shuki, Hazrat kitobni o‘ta soda va hozirgi kunimizda iste’molda bo‘lib turgan so‘zlardan foydalangan holda yozganlar. Shayximiz o‘z kitoblari “Tafsiri hilol” kitoblarida uchrashi mumkin bo‘lgan tushunish, xalq uchun qiyinchilik tug‘dirgan so‘zlarni, qavs ichida qo‘sishmcha tarizda izohlab ketganlar.

Shayx Muhammad Sodiq 2002-yildan beri o‘z kitoblarida e’tiqod ichidagi bo‘linishlarni engib o‘tishga intilayotgan islom harakati uslubida quyidagi aqidani yozib kelgan:

Bizning shiorimiz: haqiqiy iymonga, sof Islomga intilamiz, Qur’on va Sunnatni ularga amal qilish uchun o‘rganishni istaymiz va Islom ilmini yoyishni istaymiz. Biz haqiqiy mujtahidlar muborak ajdodlarga (as-Salaf as-Solihi) ergashishni xohlaymiz, toqat va birodarlikni (musulmonlar) yoyishni istaymiz. Shuningdek, biz diniy savodsizlikni yo‘q qilishni, qarama-qarshilik va bo‘linishlarimizga chek qo‘yishni, aqidaparastlik va gunohkor ishlarimizni tozalashni xohlaymiz. [6]

Navbatdagi mufassir bu Shayx Dr. Usmonxon Alimov Hazratlari bo‘ladilar. Usmonxon Alimov Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Imom Buxoriy nomidagi jome masjidida 1980-1982-yillarda imom noibi, 1987-1989, 1990-2006-yillarda ushbu masjidning imom-xatibi sifatida faoliyat yuritgan. 2000-2006-yillarda

O‘zbekiston musulmonlari idorasining Samarqand viloyati vakili, viloyat bosh imom-xatibi lavozimida ishlagan.

Dr.Usmonxon Alimov 2006-yil 8-avgustda O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy lavozimiga tayinlangan.

Dr.Usmonxon Alimov Islom olami uyushmasi ta’sis majlisining a’zosi hamda Butun dunyo ulamolar kengashi a’zosi etib saylangan. Rossiya Federatsiyasi Sverdlovsk viloyati musulmonlari idorasi tomonidan “Kumush yarim oy” medali bilan, Qirg‘iziston musulmonlari idorasining 1-darajali “Intimoq” medali (“Ittifoq”) bilan taqdirlangan. 2020- yili O‘zbekiston Respublikasining “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan.

Dr.Usmonxon Alimov Ummon Sultonligi Islomiy strategik tadqiqotlar markazi tomonidan e’lon qilingan “Dunyoning eng nufuzli 500 musulmoni” ro‘yxatidan o‘rin egallagan.

Dr. Usmonxon Alimov yigirmadan ortiq kitob va yuzdan ziyod ilmiy-ommabop maqola muallifidir. Jumladan, uning “Tafsiri Irfon”, “Imom Buxoriy – muhaddislar sultoni”, “Imom Buxoriy barakoti”, “IX-X asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi”, “Hazrati Imom”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Rasulullohning muborak vasiyatlari”, “Rasululloh mo‘jizalari”, “Oilada farzand tarbiyasi”, “So‘ragan edingiz” kabi asarlari chop etilgan.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Dr. Usmonxon Alimov tomonidan yozilgan “Tafsiri Irfon” nomli Qur’oni Karim oyatlarining o‘zbekcha tarjima va tafsiri to‘liq 30 juzi eng sifatli shaklda 6 kitob qilib nashr etildi. Unda oyatlar ma’nosi zamondosh o‘quvchilarimizga iloji boricha tushunarli, sodda va ravon bo‘lishiga harakat qilindi. Bunda oyatlar tarjimasida qavs ichidagi izohlardan iloji boricha voz kechildi.

Shuningdek, oyatlarni tafsir qilishda o‘tmishdagi va hozirdagi ulug‘ mufassirlar tafsirlaridan keng istifoda qilish bilan bir qatorda zamonaviy fan-texnika yutuqlari va kashfiyotlari bayon etilgan ilmiy kitoblardan ham foydalilanilgani ta’kidlanadi. [7]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turli ajam xalqlari, o‘z yurtlarida Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasini ham ishlab chiqa boshlashdi va bu Qur’oni Karimni tarjima usullari va shunga doir masalalarni qamrab oluvchi ilmlarni keng yoyilishiga sabab bo‘ldi. Davrlar o‘tishi bilan esa har bir hududda, o‘z allomalari hamda mufassir olimlari yetishib chiqa boshladi. Biz esa aynan ko‘plab ulamolar ichidan aynan zamonamizga yaqin yashagan va hozirgi kunda hayot bo‘lgan ulamolarimiz va ularning asarlari hamda ularning Qur’oni Karimga yozgan tarjima va tafsirlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan bo‘ldik. Xossatan, eski o‘zbek adabiy tilida Sayyid Mahdum ibn Sayyid Nazr Taroziy Madaniy Oltinxonto‘ra, Shayx Alouddin Mansur, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Dr Usmonxon Alimov tomonidan amalga oshirilgan tarjima va tafsirlar xalqimiz e’tirofiga



sazovor bo‘lgan va har bir xonadon to‘ridan joy olgan. Shundan kelib chiqib, zamonaviy tarjima va tafsirlarni o‘rganish, tadqiq qilish ahamiyatli ekanligi tog‘risida ham ma’lumotga ega bo‘ldik hamda Qur’oni Karimning bir sura ustida turli, lekin bir-birini boyituvchi firk mulohazalarni ham ko‘rib o‘tdik.

Xullas, dunyoda davlatlar, hazoralar va madaniyatlarning globallashuv jarayoni keskin pallaga kirgan hozirgi sharoitlarda xalqimiz har qachongidan ogoh va hushyor bo‘lishi, do‘sit kim, dushman kim – yaxshi ajrata olishi, e’tiqodini, imonini hamisha mustahkamlab borishi, bu yo‘lda xorijdan turib xuruj qilayotgan soxta mafkuralar va asossiz oqimlarning safsatalariga emas, dinimiz asosi bo‘lmish Qur’oni Karim va sunnati nabaviyya kabi asl manbalarga suyanishi kerak bo‘ladi. Demak, Qur’oni Karimning yangi-yangi qirralarini o‘rganish, uni yangidan kashf etish ham davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. М.М.Агзамова. Islomshunoslik. darslik / М.М.Агзамова – Toshkent “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 176 b.
2. <https://www.islamonline.uz/library/content?id=1379>
- 3.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/domla-hindistoniy-1892-1889>
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Alouddin_Mansur
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulaziz_Mansur
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Sodiq_Muhammad_Yusuf
- 7.[https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BB%D0%B8%D0%BC%D0%BE%D0%B2,_%D0%A3%D1%81%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D1%85%D0%BE%D0%BD%D0%A2%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D1%80%D1%85%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D1%83%D0%B3%D0%BB%D0%B8](https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BB%D0%B8%D0%BC%D0%BE%D0%B2,_%D0%A3%D1%81%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D1%85%D0%BE%D0%BD%D0%A2%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D1%80%D1%85%D0%BE%D0%BD%D1%83%D0%B3%D0%BB%D0%B8)

